



2022-yil. 6-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»
ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
Tolib Enazarov
To'liqin Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboq Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Lutfullo Jo'rayev (bosh muharrir
o'rinbosari)
Alijon Safarov (elektron nashr uchun)
Sayyora Halimova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Nigora Uralova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

M U N D A R I J A

DOLZARB MAVZU

Bahodir JOVLIYEV. O'zbekistonda ta'lim islohoti nega birinchi o'ringa qo'yildi?2

TADQIQOT

L.A.SULTONOVA. Maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash7
Latifa XUDAYQULOV. Xatna to'yi udumlarining tarixiy asoslari9
Mahbuba SOBIROVA. Adabiy ta'limda "blum" taksonomiyasidan foydalanish11
Nargiza UMURZAQOVA. O'zbek va Turk allalarining mavzu ko'lami va timsollar tadriji15
Otajon NOROV. Islomiy she'riyatda makon va zamon talqini17
Mehriniso ABUZALOVA, Nodira XAYRULLAYEVA. Iqtisodiy atamalarining shakllanishi va taraqqiyoti19
Xasan GAFFOROV. Ingliz tilshunosligida gender tadqiqotlar22
Rafiqjon ZARIPOV. Davlat tili taraqqiyotida til akademiyalari va atamalar qo'mitalarining roli24
Shuhrat XOTAMOV. Xodimlar kasbiy tayyorgarligini oshirish usullari27
E'zoza SABIROVA. Izohli lug'atlardagi huquqshunoslik terminlari tavsifining takomillashtirilishi29
SALIMA JUMAYEVA. "Yarador umid otlari" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari32
Zarina KARAMATOVA. XX asr O'zbek she'riyatida marsiya janri37
Yulduz BAKHRIDDINOVA. Ingliz va O'zbek tillaridagi fitonim komponentli frazeologik birliklarning antonimik va sinonimik xususiyatlari39
Kamola ULUG'MURODOVA. O'zbek g'azalchiligida "Layli" obrazining badiiy talqini41
Abdraxmanova MAKSATXAN. Hozirgi zamon Fransuz tilida modal so'zlarning leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari43
Shakhlo NUNIYAZOVA. Similarities and distinctive features of English, Uzbek and Russian idiomatic expressions46
Dilrabo KAZAKBAYEVA. Muhammadrizo Ogahiy ijodida Alisher Navoiy an'analari48
Abdimurod ARSLONOV. Amir Temur haqidagi qo'lyozma manbalarning tarixiylik xarakteri va tasnifiy tahlili50
Oydin NURULLAYEVA. Til korpuslarini yaratishda tezaurus lug'atlarning o'rni56

TAHLIL

Mirsanjar SANAYEV. Abdulla Oripovning aruz vaznida yozilgan masnaviyatlari tahlili58
Munis JO'RAEVA. So'z bilan bog'liq mifologik qarashlar60
Munira RAMAZONOVA. Tasviriy san'atning pedagogik imkoniyatlari61
Sarvinoz OMONOVA. Yosh dizaynerlarni o'qitishda moda olamidagi yangi tushuncha va atamalarining o'zbek tilidagi talqini ahamiyati63
Umarov SARDORBEK. Futurov g'oyasining mintaqa madaniyati rivojida o'rni va badiiy adabiyotga ta'siri65

ЛЕКСИЧЕСКИЙ МАТЕРИАЛ

Сарвиноз САДУЛЛАЕВА. Особенности лексики языка СМИ67
Гульзода ДЖАКБАРОВА. Особенности стиля научной прозы68

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Виктория ДВОРЯШИНА. Жанровое своеобразие «Путешествия с Чарли в поисках Америки» Джона Стейнбека70

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Фотима АРИПОВА, Гульчехра ДАВЛЯТОВА. Формирование межкультурной коммуникативной компетенции студентов аудиовизуальными средствами72

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsifiya etilgan ilmiy nashrdir.

nuqtalar makon ichkarisida makoni tashkil qiladi. Bu makon islomiy lirikada boshqacha jaranglaydi va talqin qilinadi.

*Anbiyo sarxayli, sultoni rasul
Kim, erur oning tufayli juzvi kul.
Ulki Odamdan burun ul bor edi,
Ham Nabi, ham sohibi asror edi.
Nuri mavjud ofarinishdan burin
Kim, erdi xalqiga muddati olti kun...⁴*

Yaratgan Ul zotning karamiga qarang! Alloh taolo Rasuli akaram haqida xabar berganligini anglash darajalaridir. Tarixiy manbalarning shahodat berishicha allaqachon Navoiy ham his qilgan. U ruhiy-fazoviy balandlikni talqin qilarkan, Butun olamni yaratganda Muhammad alayissalomning Nuri yaratilgan edi. Shu maqsadda Navoiy **“Ulki Odamdan burun ul bor edi”** mazmunida shoh baytga qo‘l uradi. Ko‘rinadiki, bu erda makon o‘sha Yaratilishdagi Nur, Hazrat Payg‘ambarimizning butun olamga Habib qilib tushirilishi va yaratilishidagi mo‘jizani his va aql tarozisi bilan talqin

qilmoqda. Navoiyning baladligi va umuminsoniy fikrlari ham ana shu yerda jam bo‘ladi.

Professor N.Jabborov yozishicha: “Ma’ni va suratning bir-birini taqoza etishi Har bir narsa o‘zaro juft yaratilgan va bunda teran hikmatlar bor. Kecha va kunduz, yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob va h.k. Ma’ni va surat ham xuddi shunday juftlikni hosil qiladi va mohiyatan bir-biriga zid bo‘lsa ham, biri ikkinchisiz mavjud bo‘la olmaydi. Zohiran suratni inkor etishdek tuyulgan fikrlar asosiy e’tiborni ma’niga qaratish zarurligi urg‘u bermoq uchundir. Ma’niga ustivor ahamiyat bermoq suratga mutloqa ehtiyoj yo‘qligini anglatmaydi”.⁵

Ko‘rinadiki, ma’noviy olam sirlaridan voqif bo‘lish har qanday ijodkorga nasib qiladigan yorliq emas. Shu ma’noda, Navoiy ham xuddi salafkabi kabi katta bir maqsadlarni oldiga reja qilib, o‘zining tafakkur darajasidan makoniy kengliklarga “sayr” qildi. Bu sayohat Allohga yaqinlashish, uni anglab etish, Qur’onni tushinish va tushuntirishni birgalikda olib borish zaruratini maydonga keltirdi.

1. Бахтин М. Формы времени и ханотопа в романе(Очерки по исторической поэтике) / В кн.: Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики.-М.: Художественная литература, 1975, стр. 234.

2. Mashrab. Rasulu lox keladur. hidoyat.uz/ 4463

3. Иброҳим Ҳаққул. Талант-жасорат жавҳари.-Тошкент.: Муҳаррир нашриёти. 2018. -51 б.

4. Алишер Навоий. МАТ., йигирма томлик, ўн иккинчи том. Лисон ут-тайр. (Изоҳлар билан нашрга тайёрловчи: Ш.Эшонхўжаев). -Т.: Фан, 1996, 7- бет.

5. Нурбой Жабборов. Маоний аҳлининг соҳибқирони. Тошкент. “Адабиёт” 2021. 116- б.

Mehriniso ABUZALOVA,
*Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Nodira XAYRULLAYEVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

IQTISODIY ATAMALARNING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Ayni paytda ko‘pchilik kichik va o‘rta biznes bilan shug‘ullanayotganligi sababli dunyoning turli mamlakatlarida iqtisodiyotga qiziqish ortib bormoqda. Iqtisodiy hayotdagi yangi o‘zgarishlar ushbu sohada ham turli atamalarning yozma va og‘zaki matnlarda namoyon bo‘lishiga olib keldi. “Iqtisodiyot insoniyat o‘rtasidagi munosabatlarning xilma-xilligini aks ettiruvchi fan bo‘lib, u asrlar davomida tovar ayirboshlash natijasida rivojlangan. Iqtisodiy faoliyatning moliya va bank ishi, fond birjalari va investitsiyalar, biznes informatikasi, boshqaruv kabi tizimlari mavjud. Tilshunoslik nuqtai nazaridan har bir tizim o‘ziga xos atamalariga ega

bo‘lib, ba‘zan bir vaqtning o‘zida bir nechta tizimlar uchun umumiy atamalar ham bo‘ladi.[1]

Bugungi zamonaviy tilshunoslik keng rivojlangan va takomillashgan bilim sohalaridan biri bo‘lib, uning natijalari nafaqat gumanitar fanlar, balki turli fan vakillari tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. “... yangi davrda tilshunoslik boshqa sohalarga ko‘makchi bo‘lib qolishi kerak. Matematik lingvistika, biologik lingvistika, fizik lingvistika, tibbiy lingvistika, kompyuter lingvistikasi, psixologik lingvistika, ta’limiy lingvistika, san’at lingvistikasi, diniy nutq lingvistikasi, ortologiya va hokazo. ...Har bir soha bo‘yicha lug‘atchilik

lingvistik asosda taraqqiy etishi lozim”, deya ta’kidlaydi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori B.Mengliyev.

Iqtisodiyotda ham o’zbek tilidagi terminlarni boyitish davr talabiga aylanmoqda. “Shu bois barcha jahon tillari qatori, o’zbek tilidagi terminlarni, atamalarni jonlantirish, yuqoridagi va boshqa shunga o’xshash muammolarni hal qilish lozim. Shu bilan birga, iqtisodiyotning yetakchi yo’nalishlari: buxgalteriyamoliya, ekonometrika, menejment, marketing, logistika va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo’nalishlari bo’yicha qulay va avvalgi izohli lug’atlardan farqli, eski o’zbek tilida mavjud bo’lgan terminlarni muomalaga kiritish, o’zbek tili asoschilari bo’lmish Alisher Navoiy, Mahmud Koshg’ariy kabi yirik allomalar asarlaridan iqtisodiyotga oid atamalar sinonimlarga boyligini inobatga olib, terminlarni jonlantirish hisobiga O’zbekistonda iqtisodiyot ilm-fanini rivojiga xizmat qiladigan, har bir iqtisodchining javonidan maxsus o’rin egallaydigan izohli lug’at ishlab chiqish zarurati mavjud.[2]

Qadimgi Hindistonda yaratilgan «Veda»larda, zardushtiylilik (zoroastrizm) dinining (islomgacha) muqaddas kitobi bo’lgan “Avesto”, ya’ni “Hayot yo’riqnomasi”da muhim iqtisodiy fikrlar bayon etilgan. “Avesto”da chorvadorlar hamkori Yimning xizmati ulug’lanib, kuchli sovuq, qor va to’fonlardan mavjudotlarni qutqarish uchun “**varu**” (ilk iqtisodiy tushuncha) – qo’rg’on qurdirgani, unga suv o’tkazgani, barcha o’simliklar urug’i va olovni keltirgani qayd etiladi. Dehqonchiliksiz baraka bo’lmasligi aytilib, “*Kimda-kim zaminni chap va o’ng qo’li bilan shudgor qilsa, zamin unga farovonlik baxsh etadi. U go’zal va pokiza qizga o’xshaydi. Bu qiz er xonadoniga kirib borib, o’z to’shagidan halol yostiqdoshiga farzandlar tug’ib beradi. Zamin ham mo’l-ko’l mevalarini in’om etadi*”, deb ona-zamin obrazli tarzda oilani obod qiladigan, farzandlari bilan avlod davom ettiradigan ayolga qiyoslanadi. Kitobda ziroatchilikni rivojlantirish, yangi yerlarni ochish bo’yicha faol siyosat olib borish kerakligi uqtirilgan bo’lib, “*Inson yerni tashlasa, unga qaramay qo’ysa, unday odam o’zgalari eshigi oldida turgan doimiy gadoyga aylanadi*”, deyilgan bo’lib, tanballikning oqibati gadoylikni keltirib chiqarishi nozik o’xshatmalar asosida dalillangan.

Antik davrda “ekonomiya” so’zi («oykonomiya»: – «oykos – uy, xo’jalik va «nomos» – qonun, qoida) uy xo’jaligi mazmuniga ega bo’lib, Ksenofontning maxsus asari sarlavhasi bo’lgan. Platon (Aflotun) “Davlat” va “Qonunlar” kabi asarlarida mulk egasi – dehqon, hunarmand va savdogar bo’lishi kerak deya, ularni “**qora toifa**” metaforik nom bilan atagan. “Aristotel qul – **tirik qurol**, qandaydir **tirik mulk** degan edi. Uning fikricha, jamiyatning quldor va qullarga bo’linishi – bu tabiiy va qonuniy hol bo’lib, odamlarning tabiatan turli-tumanligidandir. U “haqiqiy boyluk” (tabiiy)ni tan olgan, uni iste’mol qiymatlarining yig’indisi deb bilgan va bu bilan bog’liq faoliyatni iqtisodiyotga tegishli soha deb bilgan”.

Qur’oni karim ham ilk iqtisodiy tushunchalar asosi sanaladi (VII-VIII asrlar), iqtisodiyotga doir masalalarga ham keng o’rin berilgan. Bu muqaddas kitobda Alloh taolo savdoga katta ahamiyat bergan, sudxo’rlikni, ya’ni ribo’ (sudxo’rlik foizi)ni harom qilgan. “*Daryo bo’yida tahorat qilsalarigiz ham suvni isrof qilmanglar*” kabi qoidalar aynan hozirgi zamon iqtisodiyoti va ekologiyasi uchun nihoyatda ahamiyatli sanaladi. Iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslari islom ta’limotidagi fikhning tarkibiy qismini tashkil etadi.

E’tibor beradigan bo’lsak, xalq og’zaki ijodi namunalarida ham iqtisodiy qarashlar yo’q emas. Alpomishning otasi Boybo’ri bilan uning akasi Boysaribiyning zakot to’lovi bo’yicha nizolari, muomala uchun ishlatiladigan pul birliklari oltin va kumushlar ekanligi to’g’risidagi ma’lumotlar bundan darak beradi.

Iqtisodiyot sohasi leksik tizimining rivojlanish tarixini turkiy xalqlar madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo’lgan Mahmud Koshg’ariyning “Devoni lug’otit turk” asarisiz tasavvur etish qiyin. Muallifning asarida boshqa soha terminologiyasidan tashqari bugungi kunda tarixiy leksik birlikka aylangan ba’zi iqtisodiyotga oid atamalar ham qo’llangan. Jumladan,

Asig’ – foyda (95-bet).

Alim – ayrim kishilardan olinadiga narsa, qarz (105-bet).

Ugun – pul, tanga, chaqa (44-bet).

Artut – bek va shu kabi kishilarga tortiq qilinadigan ot va boshqa narsalar. So’ng bu so’z har bir tortiqqa ham qo’llanila boshlangan (133-bet).

Temuriylar davrida toju taxt uchun qilingan xizmatlar evaziga sipohiyarga tanho (in’om ma’nosida beriladigan mablag’)lar ajratilgan. Amir Temurning davlat va iqtisodiyot sohasidagi asosiy fikrlari “Temur tuzuklari”da bayon etilgan. Tuzuklarnig 1-qismida asosan yagona davlat barpo etish, uni mustahkamlash, qo’shni yurt va mamlakatlarni zabt etish masalalari yoritilgan bo’lsa, 2-qismda ijtimoiy-iqtisodiyotga oid fikr-mulohazalar keltirilgan. “Eng muhimi, ushbu kitobda bank-moliya tizimining shakllanishi xususida qat’iy bir xulosani ko’ramiz: “Agar aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda Yevropada birinchi budget tuzilishi Angliya va Fransiyada XVII asrda paydo bo’lgan deb qayd qilingan bo’lsa, mustaqillik davrida nashr qilingan ilmiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temur o’z davlatida undan uch asr avval mamlakatni idora etishda budgetning dastlabki kurtaklarini ishlab chiqdi va joriy qildi.

Amir Temur davrida ulufa – amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o’nboshilar va sipohiyarga beriladigan maosh, soliq turi mavjud bo’lgan. O’sha davrda amirlarga tiyul (xiroj va soliq yig’ib olish haqi bilan in’om etiladigan yer-mulk)lardan berilgan. Amirga tiyul berilar ekan, uni uch yilgacha o’z holiga qo’yish, uch yil o’tgandan so’ng uni tekshirib ko’rish, agar mamlakat obod, xalq rozi ekanligi aniqlansa, shu holida qoldirish, agar buning teskarisi bo’lsa uch yilgacha o’sha jog’irdor

(tiyul egasi)ga ulufa berilmasligi ta'kidlangan. Ya'ni, bugungi kredit bilan bog'liq tushunchalar, tarixiy leksik birliklar temuriylar davridanoq shakllanganligi ayon bo'ladi.

Alisher Navoiyning:

*To hirsu havas xirmoni barbod
o'lmas,
to nafsu havo qasri baraftod o'lmas,
to jabr zulm jonig'a bedod o'lmas,
el shod o'lmas, mamlakat obod
o'lmas.*



kabi misralarida mamlakat obodligi, iqtisodiyot rivoji insoniyat ma'naviyati bilan bog'liq holatda tasvirlangan.

Bilishimizcha, Navoiy mahdudotda o'ziga qarashli bo'lgan, qozi muhri bilan tasdiqlangan vaqf hujjatlari asosida atrofi aniqlangan va belgilangan joylar, ekin maydonlari, daromadli yerlar, binolar, korizlar kabi ko'chmas mulklar (ko'char mulklari haqida ma'lumot aytilmagan)ini vaqf qilganligi hamda uning shart-sharoitlari xususida muxtasar ma'lumot bergan".

Moliyaviy ibodat turlaridan yana biri zakot sanaladi. Zakot Islomning besh ruknidan biri bo'lib, shariat farz qilgan amal bo'lib, mol-mulk, daromadidan beriladigan sadaqa, xayr-ehson sanaladi. Zakot ibodati tufayli zakot beruvchi kishi o'zining ixtiyoridagi mol-dunyo Alloh tomonidan berilgan ne'mat ekanini, bu mol-dunyoga vaqtinchalik ega bo'lib turganini tushunib yetadi.

Ayniqsa, XX asming oxiri XXI asr boshlarida mustaqil O'zbekistonda ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor munosabatlariga o'tish zarur deb topildi. Respublikamiz mustaqil deb e'lon qilingach, dunyoning turli mamlakatlari bilan har tomonlama aloqalarga keng yo'l ochildi. Tub islohotlar davrida iqtisodiy munosabatlar tizimining bir shaklidan

voz kechildi va ikkinchi shakliga yuz tutildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soha terminologik tizimi yangi tushunchalar va ularga bog'liq leksik birliklar bilan boyidi. Iqtisodiyotga oid darslik va qo'llanmalarda bozor munosabatlari bilan bog'liq o'tishning uch xil shakli mavjudligi – yangi lingvistik tushunchalarda qayd etilgan: yovvoyi bozor (dastlabki paytlarda); ma'muriy-buyruqbozlik bozori (sobiq, SSSR va sotsialistik deb atalgan mamlakatlarda); boshqariladigan bozor (hozirgi deyarli barcha rivojlangan yetakchi mamlakatlarda). Shular bilan bir qatorda o'zbek modeli, shok terapiyasi, valyuta, dollar, kredit, banknot, akkreditiv, lizing, taqchil, bizneschi, kapital, sarmoya, qarz o'simi, kreditning elastikligi, undirilgan pul, unumsiz mehnat, pul muomalasi, bozor muvozanati, shubhali kredit kabi qator birliklar tilimiz xazinasidan joy ola boshladi.

Yuqorida keltirilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy so'z va atamalar shakllanishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Iqtisodiyot jamiyatning o'zagi bo'lib, har qanday davrda muhim rol o'ynaydi. Mazkur sohaga mansub lingvistik birliklar barcha jamiyat ahliga tushunarli, mantiqan asoslangan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Стрелетская И.В., Новаковская Э.В. Некоторые особенности перевода экономических текстов с английского языка на русский //Ж. "Мир современной науки". - М., 2011.-№6. –С.3
2. <https://kun.uz/news/2019/09/05/>
3. Касимова М.С., Джаббаров Ш.Г. Иқтисодий терминларнинг қўлланилиши: муаммолар ва ечимлар // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. – 5-сон, сентябрь-октябрь, 2017 йил. –Б. 2-5
4. Соссюр, Ф. де. Курс общей лингвистики // Введение в языкознание : Хрестоматия: учеб. пособие для вузов / сост. А.В.Блинов, И.И.Богатырева, В.П.Мурат, Г.И.Рапова. М.: Аспект Пресс, 2001. С. 5-54.
5. Yaroslavova E., Kosterin V. Using an integrative approach in teaching English language and e-commerce // 11 th International Technology, Education and Development Conference. Dates: March 6-8. 2017. –Pp. 9982-9987 DOI: 10.21125/inted.2017.2382; Manyasi N.B. Integrated approach in teaching English language: the practice in Kenya // International Journal of Education and Research. 2014. Vol. 2 No.4. – P. 253-264 .
6. Тарасевич Т.М. Проблемы интеграции экономики и лингвистики на современном этапе // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2008. № 4. – Pp. 246-250.3
7. Jayalakshmi R. An integrated approach to business English. 2017.–254 p. ISBN: 0973-3728
8. Сысоев Ф.И. Экономика и лингвистика: теория, история, практика // Terra Economicus. 2019. № 2. – P. 163-175. – С.163.
9. Муҳаммадалиева М. Ўзбек тилидаги касб-хунар номларининг лексикографик таҳлил // НамДУ илмий ахборотномаси.2020. № 6. 151-155-б.
10. Раззоқов А., Тошматов Ш., Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи. Тошкент: Молия, 2002 . – 492 бет. – Б.28.